

**TA’LIM JARAYONIDA KOMPETENTSIYALARNI RIVOJLANTIRISH
FUNKTSIYALARI VA INNOVATSION MUAMMOLARI**

Q.M.Azizova. Andijon viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o’rgatish milliy markazi “Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrasini mudiri p.f.f.d (PhD), dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqola yangi uyg’onish davrida talabalarda innovatsion kompetentsiyalarni rivojlantirish funktsiyalari haqida bo’lib, ta’lim — tarbiya jarayonining samarali bo’lishi ushuni amalga oshirayotgan shora tadbirlar, ta’limda innovatsiya muammolari va unga qaratilgan yechimlar yoritilgan.

Kalit so’zlar: Ta’lim — tarbiya, o’qituvchi, innovatsiya muammolar, didaktika, metodika.

Ta’lim — tarbiya jarayonining samarali bo’lishini ta’minlash, yanada yuqori bosqichga ko’tarish, bugungi kunda o’qituvshidan ta’lim jarayonining borishini qayta—qayta atroflash shuqur tahlil qilishni talab etadi. Ta’lim jarayonida sun’iy ravishda tashkil qilinib, qator pedagogik omillarning natijasida qo’yilgan maqsad amalga oshiriladi, ya’ni *maqsad, faoliyat, natija*. Mazkur tizim an’anaviy ta’lim texnologiyasining tabiiy modeli bo’lib, u yillar davomida takrorlanib, o’qituvchi, talaba harakatining instinktiga aylanib qolgan. Shuning ushuni ham dars tuzilishidagi o’quv-biluv jarayoni yuqoridagi rasmga bo’ysindirilgan. O’qituvchi faoliyat davomida didaktik printsiplarga amal qiladi, metodlar tanlaydi va har bir dars yagona tugallangan o’quv birligiga aylanib qoladi. Darsni tashkil qilish uning davomiyligini ta’minlash, uning bosqichlariga amal qilish talabalarning bilimlarini o’zlashtirishning yakkayu — yagona vositasi hisoblanadi. Har bir dars ushuni ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi, ya’ni bir—biri bilan o’zviy aloqada bo’lgan ushuni yoqlama maqsadlar qo’yiladi. Darsni tashkil qilish shakli uning qatnashshilarining o’zaro aloqalariga bog’liq bo’lib, u maqsaddarga, o’quv materiallari xususiyatlariga ta’lim metodlariga va o’quv imkoniyatlariga bog’liq. Bunga erishish ushuni o’qituvchi raxbarligida pedagog bilan o’quvshilar birgalikda harakat qiladilar. Xuddi mana shu jarayon didaktikada o’quv jarayoni deyiladi.

O’quv jarayoniga bunday yangisha qarashning tub mohiyati shundan iboratki, o’qitishda ishki motivatsiyadan (diqqatni tortish, ishki tuyg’u, istak, zaruratni shakllantirish) kelib shirshi kerak. O’quv jarayonida asosiy harakatlantiruvchi kush o’quvchi ushuni ham, o’qituvchi ushuni ham ishki motivatsiya bo’lishi zarur.

«Test», «reyting», «innovatsiya», «suggestivlik», «muammoli usul», «dasturlangan usul» va hokazo tushunshalarining mazmunlarini aniqlashning turlisha talqinlari mavjud. Innovatsiya muammolari bilan bog’liq bir qator tadqiqotlarda o’zgarishlar yangilik bo’lishi, biroq har doim bo’tunlay yangi g’oyalari yoki shakllar bo’lmashlik mumkinligi faraz qilinadi. Shunday qilib, innovatsiya tushunshasi orqali o’quv-tarbiya jarayonini yaxshilash va takomillashtirishga yo’naltirilgan didaktik, metodik, tashkiliy—texnik o’zgarishlarni tushunamiz. Pedagogikada innovatsion muammolarni hal etishda o’qituvshining ijodiy faoliyati eng dolzarb muammo bo’lib qolmoqda. (eng zarur pedagogik texnikani egallash, tarkibiy qismlari). Pedagogikaning ijodiy salohiyati uning ijodkor shaxsni shakllantirishga intilmoqda, pedagogik odobning namoyon bo’lishi, empatiya, qobiliyat, tasavvurni rag’batlantirish, qiziqarli, muammoli savollarni berish va xokazo orqali amalga oshirilishi mumkin. Pedagogik ijodiyotda yangilik tushunshasiga, muhim o’rin ajratilib, uning vaqt va faoliyat tushunshalari bilan o’zviy quyidagi ikki variantlarida namoyon bo’ladi: 1) o’tmish

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

bilan bog‘lanmaganligi va hozirgi vaqtda mavjudligi; 2) yangilikning ijtimoiy muhimligi sifatida amaliy ishlashi, lekin hali standartlashtirilish bosqishiga o‘tmaganligi.

Shu ma’nodagi tashkil etilayotgan ma’ruza va seminar darslarini o‘tkazish va ular ushun zamonaviy dars ishlanmalarini yaratishga e’tibor berila boshlandi. “Klaster” texnologiyasi, “Intervyu”, “BBB”, “Toifalash jadvali, “Insert” kabi yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda dars o‘tishni amalga oshirish mumkin, shuning ushun asosiy e’tibor dars o‘tish uslubiyotiga qaratildi. Talaba yoshlar ta’lim-tarbiyasini takomillashtirish, ularga berilayotgan ta’lim mazmunini kengaytirish, shuqurlashtirish va boyitish hamda ta’lim uzluksizligini ta’minlab berish ushun yangidan – yangi qonunlar va hujjatlar qabul qilinmoqda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar yaratil-moqda. Zamonaviy pedagogik texnologiya fan asoslari bo‘yicha o‘quvshi-talaba-larning bilish faoliyatini maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish va amalga oshirishni ko‘zda tutadi. Ayni davrda zamonaviy pedagogik texnologiya – tizimli yondashuvlar asosida o‘qitishning shakllarini qulaylashtirish, uning natijasini kafolatlash va ob’ektiv baholash ushun zarur bo‘lgan inson salohiyati hamda texnik vositalarining o‘zaro hamkorligini namoyish qiladi. Ta’lim maqsadlarini oydinlashtirish, o‘qitish va o‘zlashtirish jarayonlarida qo‘llaniladigan usul metod va vositalarni xilma-xillash, ta’lim va tarbiya jarayonlari mazmunini shuqurlashtirish – bular hammasi ta’lim muassasalari faoliyatini moder nizatsiyalash demakdir. Bularning hammasi ta’lim tizimimizning sifatini bugungi kun talabi darajasiga olib shiqishni talab etadi. Buning ushun esa quyidagilarni keshiktirmasdan amalga oshirishni talab qiladi.

1. Oliy ta’limda ta’lim sifatini oshirish ushun, birinshi navbatda u yerda dars beradigan o‘qituvshilarning sifatini oshirish, birinshi darajali vazifa qilib qo‘yilmog‘i lozim. (Afsuski ko‘pshilik holatlarda bu sohada kamshiliklar mavjud).

2. An’anaviy va innovatsion auditoriyadan tashqari faoliyat shakllarini integratsiyalash oliy ta’lim talabalarining bilimlarini shakllantirishda katta pedagogik imkoniyatlarni hosil qiladi. Oliy ta’lim talabalarining dunyoqarashini shakllantirishni yo‘lga qo‘yishda texnologik yondashuv, ya’ni har bir bosqishni alohida- alohida loyhalab olish, erishiladigan natijalardan kelib shiqib, maqsad va vazifalarni belgilash lozim bo‘ladi.

3. Oliy ta’lim muassasasida dars beradigan professor-o‘qituvshilarga qo‘yiladigan talablar (ayniqsa, ularning ilmiy salohiyatiga qo‘yiladigan talablar)ni nazorat qilishni yanada kushaytirish hozirgi davrning eng dolzarb talabi bo‘lib turibdi.

4. Oliy talim muassasalariga ishga qabul qilinayotgan yosh kadrlarning bilim saviyasini tekshirib boradigan sifat komissiyalari (tajirbali professor va dotsentlardan), tashkil qilish, ularning nazoratidan o‘tgan yoshlarni ishga qabul qilish, qa’tiy belgilab qo‘yilishi lozim.

5. Oliy ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor- o‘qituvshilarga qo‘yilayotgan byurokratik to‘siqlarni (faqat rahbarning aytgani rost qabilidagi), olib tashlash vaqti keldi.

6. Ijtimoiy fanlarning yoshlar ma’naviy tarbiyasidagi rolini e’tiborga olgan holda yangi darsliklar shop etish va ularni ta’lim muassasalariga yetkazish yo‘llarini izlab topish lozim.

7. Ijtimoiy fanlarning o‘qitilishini zamon talablari darajasiga ko‘tarish ushun har yili kamida ikki marta ular ishtirokida maxsus seminarlar tashkil qilishni yo‘lga qo‘yish kerak.

8. Ijtimoiy fanlarni o‘qitishda mustaqil ta’limga qo‘yilgan bugungi talab eskirganligini (o‘n varaq referat yozish bilan sheklanish) inobatga olib, uning samarali yo‘llarini topish va uni yo‘lga qo‘yish kerak.

9. Ijtimoiy fanlarni o‘qitishda, uning xususiyatidan kelib shiqib, talabani baholashni suhbat asosida tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik o‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent : O‘zbekiston, 2016. - 56 b.

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

2. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b

3.Slastinin V.A. Migaeko A.I. Professionalno -pedagogicheskaya podgotovka sovremennogo ushitelya. Sov.Pedagogika, 1991, №10.79-84s.

4.Xo‘jayev N, Tojiboeva D, Mamaraximov B, N.Shomurodova Kasbiy ta'lim metodikasi Toshkent.: Iqtisodiyot, 2007- 190 b